

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

LOYIHA

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA

SAMARQAND SHAHRI O‘ZBEK
SHEVALARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna

Samarqand shahri o'zbek shevalarining leksik
xususiyatlari.....4

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna

Лексические особенности узбекских диалектов города
Самарканда.....29

Tillabayeva Zilola Rakhmatillayevna

Lexical features of the uzbek dialects of the city of
Samarkand.....58

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....62

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
SAMARQAND SHAHRI O‘ZBEK SHEVALARINING LEKSIK
XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1725 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ashirboyev Samixon
filologiya fanlari doktori, professor

Eltazarov Jo‘liboy Danabayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 ilmiy kengashning 2023-yil “____” _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.

(Manzil: 174, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, bosh o‘quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.Q. Muhiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

D.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

D.B.Urinbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining dialektologiya sohasida sheva hamda lahjalarni har tomonlama o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'zbek shevashunosligida dialektal materiallar asosida xalqlarning hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab so'zlarni adabiy tilga olib kirishga muvaffaq bo'lindi. Shuningdek, ana shunday so'z va hodisalarning tarqalishini umummilliy boylik darajasida xalqqa yetkazish haqida aniq ma'lumotlar olishga erishildi. Zotan, lahja va shevalarning fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi, leksikologiyasini mukammal o'rganish soha taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'taruvchi omil sanaladi.

Xalq nutqidan yozib olinga dialektal materiallar mazkur millatning madaniyati, tarixini o'zida ko'rsatuvchi boy manba hisoblanadi. Shu sababdan ham fan oldida turgan endigi vazifa har bir hudud shevalari leksikasini to'plab, ularni leksik-semantik guruhlariga bo'lib, ideografik lug'atlarini yaratishdan iborat. Zero, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash"¹ zarurligini bejizga ta'kidlab o'tmaganlar. Zotan, "til doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisadir"². Shu sababdan o'zbek tilshunosligida xalq shevalarining turli-tuman xususiyatlarini har xil usullar bilan tadqiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tilga ham ta'sir etishi, shubhasiz. Bu tilimiz leksikasida o'z ifodasini topadi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek dialektologiyasi sohasida salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq ba'zi bir hudud shevalari leksikasi to'liq va atroflicha o'rganib bo'lingani yo'q. Jumladan, Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasi alohida monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shu sababli ham mazkur hudud shevalari lug'aviy birliklarining leksik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish nihoyatda dolzarb. Bunday tadqiqot natijalari nafaqat dialektologiya sohasi uchun, balki o'zbek tili, qolaversa, turkiyshunoslik fanlari rivoji uchun ham juda muhim. Sababi Samarqand shahri qarluq shevalari bo'yicha to'plangan dialektal materiallar tahliliga ko'ra, mazkur hudud aholisi nutqida o'zbek adabiy tili hamda shevalarda qayd etilmagan lug'aviy birliklarning borligi aniqlandi. Zero, mazkur hudud shevalari o'zining boy lug'at jamg'armasiga ega. Xalqimizning ma'naviy boyligini asrashimiz, o'rganishimiz, kelajak avlodga qoldirishimiz uchun ham xalq shevalari materiallarini yig'ishimiz va tahlil qilishimiz zarur. Bu esa tadqiqot ishimizning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Shuningdek, Sh.Shoabdurahmonov ta'kidlaganlaridek: "Agar yaqin kelajakda o'zbek traditsion leksikasi to'laligi bilan qayd etib olinmasa, barcha mas'uliyatni hisobga olgan holda aytish mumkinki, keksa avlod tugab borishi bilan tilning ular hofizasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan qimmatli materiallarining bir qismi hamishalikka yo'qolishi mumkin"³. Darhaqiqat, o'zbek shevalari leksikasini chuqur

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda "Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi" mavzusidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi\ Xalq so'zi.- 2018-yil 29-dekabr.

² Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.– Б.61.

³ Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари.- Тошкент, 1962.- Б.325.

o'rganish o'zbek tilshunosligi, xususan, uning dialektologiya, dialektografiya kabi sohalari rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili leksikasi boy tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Ayrim so'zlar qadimiy davrlardan o'tib hozirgacha muomalada saqlangan bo'lsa, ba'zilar nisbatan turli ijtimoiy o'zgarishlar hamda boshqa tillar ta'sirida keyinroq vujudga kelgan. Zotan, shevalar insoniyat nutqi paydo bo'lgan paytdan boshlab, o'ziga xos tarzda qo'llanilib keladi. Ularning ma'no nozikliklarini farqlash bugungi kunda davlatchilik ravnaqiga e'tibor berilayotgan bir paytda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbek shevalarida qo'llanayotgan qi:čäp-shoshirib, talli:- shirinlik, žuri:p- yurib, qi:lami:q- yupqa (qipchoq lahjasida), pāččā- pochcha, vāj mā- mubolag'a, vahima, bāččā- bola, ānā- buvi (qorluq-uyg'ur-chigil lahjalarida) shevalarida, ārnā- anhor, jāp- katta ariq, tājāk- boloxona (o'g'uz lahjasida) singari qator o'ziga xos so'zlarni adabiy tilga kiritish zarurati bor deb hisoblaymiz.

O'zbek shevalarining o'rganilishi o'tgan asrning dastlabki yillarida boshlanib, 60-70-yillarda bu borada ancha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bir qator monografik tadqiqotlar uyushtirilgan ko'plab ekspeditsiya materiallari asosida yoritildi. Shuningdek, mazkur sohada "O'zbek shevalari leksikasi" (1966) ilmiy to'plami, "O'zbek xalq shevalarining lug'ati" (1971) kabilarning nashr etilishi o'zbek shevalarini o'rganishda yangi sahifa ochib berdi. Keyinchalik yig'ilgan ilmiy materiallar asosida "O'zbek shevalari leksikasi" (1991) nomli kitob bosmadan chiqdi.

Ammo o'tgan asrning oxirlari va XXI asrning boshlariga kelib, sohaga bo'lgan qiziqish kamayib ketdi. Bu borada barmoq bilan sanarli darajadagi ishlar amalga oshirildi. Dialektologiyaga doir qator monografiyalarni, ilmiy darsliklarni o'rganish jarayonida o'zbek xalq shevalari fonetik, morfologik, areal jihatdan anchayin chuqur tahlil qilingan bo'lsa-da, leksik jihatdan to'liq o'rganilmadi, hisob.

Ushbularni e'tiborga olib, Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasini to'liqroq va atroflicha o'rganishga harakat qildik.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni jonlashtirish, asrab-avaylash, keng ko'lamda targ'ib qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Bu, shubhasiz, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanaluvchi shevalarimizga ham xos. Jumladan, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining lug'at boyligini yangi so'zlar bilan doimiy boyitib borish va ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar yaratishga mo'ljallangan o'zbek shevashunosligi markazini tashkil etish haqidagi Qarori, qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-222-son Qarori fikrimizning yorqin dalilidir.

Mazkur dissertatsiya ishimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Zotan, hukumatning shevalarni o‘rganishga qaratilgan Qaror, Farmoyish va Farmonlarida xalq shevalari milliy madaniyatimizning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, uni saqlab qolish, asrab-avaylash dolzarb masala ekanligi aytib o‘tilgan. Rus tilshunosi A.M.Peshkovskiy haqli ta’kidlaganidek: “...xalq lahjalari va shevalari tilshunos e’tiboridan chetda qolishi mumkin emas, aksincha, tabiatshunos issiqxonadan ko‘ra yaylovlarni o‘rganishni afzal bilgani kabi tilshunos uchun ham aynan shevalar asosiy va e’tiborga molik, lisoniy hayot sirlarini ochib beradigan tadqiqot obyektiga aylanmog‘i lozim”⁴.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiyshunoslikda shevalarni qiyoslash va chog‘ishtirish ishlari M.Koshg‘ariy, M.Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz ishlarida namoyon bo‘ladi. XX asrning 20-yillaridan boshlab, N.A.Baskakov, M.Sh.Shiraliyev, E.V.Sevortyan, N.Z.Gadjiyeva kabi olimlar tomonidan turkiy tillar va ularning shevalari keng tadqiq qilingan⁵.

O‘zbek dialektologiya sohasida shevalarni yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar amalga oshirilib, Abdurauf Fitrat, M.Behbudiy, G‘ozi Olim Yunusov, Ye.D.Polivanov, K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, X.Doniyorov, B.Jo‘rayev, O.Madrahimov, N.Rajabov kabi olimlarning mehnati samarasi o‘laroq, monografik tadqiqotlar yaratildi⁶. O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari A.To‘raqulov,

⁴ Пешковский А. М. Объективная и нормативная точка зрения на язык // История языкознания XIX и XX вв. в очерках и извлечениях / Под ред. В. А. Звегинцева. - Москва, 1960. - Ч. 2. -С. 233.

⁵ Баскаков Н.А. Ногайский диалект.- М-Л., Изд-во АН СССР, 1940. Ширалиев М.Ш. Состояние и задачи дальнейшего развития тюркской диалектологии в СССР.- Советская тюркология, 2, Баку, 1973. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. М., 1980. Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареалы Кавказа.- М.: Наука, 1979.

⁶ Поливанов Е.Д. Вокализм говора гор.Самарканда (глава из описания двуязычной системы)// Доклады АН СССР.- Ленинград: Акад.наук СССР, 1928, № 14- 306-312 с. Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка.- Ташкент, 1934. Решетов В.В. О Намангаском говоре узбекского языка.- М.: Изд-во АН СССР, 1953. Шоабдуррахмонов Ш. Ўзбек тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, Ўз ССР ФА нашриёти, 1962. Шерматов А. Қарши шеvasи лексикасидан намуналар. – 2-китоб, Тошкент, 1961. Иброхимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи.- Тошкент, Фан, 1967. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. - Тошкент, Ўз ССР ФА нашриёти, 1964. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро гуруҳ шевалари.- Тошкент, Фан, 1969. Джураев Б. Шахриябский говор узбекского языка.- Тошкент, Фан, 1964. Дониёров Х.Д. Қипчоқ диалектларининг лексикаси.- Тошкент, Фан, 1979. Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси.- Тошкент, Фан, 1973. Ражабов Н. Қарноб шеvasида феъл категорияси. – ЎзДУ асарлари, 77-янги серия, Самарканд, 1958.

N.Murodova, M.Saidova, M.Begaliyev, R.Yo'ldoshev, A.Allaberdiyev, Y.Bobojonov, N.Shoimova kabi zahmatkash olimlarning ishlarida tarixiy-qiyosiy usuldan foydalanilgan holda tadqiq qilingan⁷. Leksikasi va fonetikasi jihatdan o'ziga xosligi bilan boshqa shevalardan ajralib turuvchi Samarqand shahri qarluq shevalari hamon monografik tadqiqot sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi qipchoq va o'g'uz lahjalarining tadqiq etilishida professorlar Xudoyberdi Doniyorov, va Nazar Rajabovlarning hissalarini beqiyos⁸.

Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasi haqidagi ba'zi bir ilmiy maqolalarni hisobga olmaganda keng aspektda, ya'ni maxsus monografik tadqiqot sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida olib borilayotgan OT-F8-062 "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" nomli fundamental tadqiqotlar rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasi bo'yicha to'plangan faktik materiallar asosida lug'aviy birliklarni leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish, boshqa o'zbek shevalari, yozma yodgorliklar tili materiallari bilan qiyoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Samarqand shahri qarluq shevalarining leksik-semantik xususiyatlarini yoritish;
mazkur tadqiq etilayotgan shevalarining hududiy jihatdan yondosh bo'lgan Buxoro, Qashqadaryo shevalari bilan o'xshash va farqli jihatlarini yoritish;
hududga doir ikki tillilik masalalarini yoritish;
sheva leksikasiga doir materiallarni to'plash va tavsiflash;
Samarqand shahri qarluq shevalaridagi leksik birliklarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zbek adabiy tiliga qiyoslash orqali tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti. Samarqand shahri qarluq shevalari bo'yicha to'plangan dialektologik dala ekspeditsiyasining materiallari, umumturkiy tilga oid yozma yodgorliklar va samarqandlik qator ijodkorlar asarlaridan iborat.

Tadqiqotning predmetini Samarqand shahri qarluq shevalarining o'ziga xos leksik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda diaxron va sinxron aspektlarda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand shahri qarluq shevalarining leksik xususiyatlari ilk marotaba to'liq tadqiq qilindi;

⁷ Тўракулов А. Қўқон группа шевалари лексикаси Филол. фанлари номзоди... дис. Тошкент, 1974. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё "же"ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. НДА.-Тошкент, 1999. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шева лексикасининг қиёсий тадқиқи.- Тошкент: Фан, 2005. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. НДА. – Тошкент, 1995. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеvasи. - Тошкент: Иқтисод-Молия, 2007. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филол. фанлари номзоди... дис. Тошкент: 2018. Бобожонов Ў. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси.- НДА. – Тошкент, 1997.

⁸ Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари.// Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. Самарқанд, 2017. Б.55-59.

mazkur hudud shevalarining lugʻat tarkibida yozma yodgorliklar tilida uchraydigan ayrim koʻhna soʻzlar borligi aniqlandi;

oʻzbek adabiy tilining rivojida Samarqand shahri qarluq shevalariga doir toʻplangan faktik materiallar borligi dalillandi;

soʻzlashuv nutqiga xos ikki tillilik holatlari aniqlandi.

toʻplangan qimmatli materiallar sheva vakillarining etnogenezini, milliy realiyalarini, lokal tadqiq qilinayotgan hudud tarixini oʻrganish imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand shahri qarluq shevalarini diaxron va sinxron aspektda oʻrganish asnosida yuzaga kelgan tadqiqot natijalari nafaqat oʻzbek tili tarixi, balki turkologiya fani uchun ham muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi asoslangan.

Samarqand shahri qarluq shevalari boʻyicha toʻplangan dialektologik dala materiallari tahliliy natijalari ushbu hudud shevalari lugʻati tarkibidagi soʻzlar oʻzbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qilishi izohlangan.

tadqiqot natijalari oʻzbek shevashunosligi, til tarixi fanlari uchun ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi, lingvokulturologiya, etnolingvistika kabi sohalar boʻyicha darslik, lugʻat, oʻquv qoʻllanmalarining mukammallashuviga qoʻl kelishi dalillangan.

Samarqand shahri qarluq shevalari yuzasidan tuzilgan izohli lugʻat hudud shevasining boshqa oʻzbek shevalar bilan munosabatini aniqlash, qiyoslash, til tarixiy taraqqiyotining ayrim masalalarini hal qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy maʼlumotlarni ilgari surishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, yigʻilgan materiallar oʻzbek xalq shevalari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, qiyosiy, tavsifiy usullar asosida oʻrganilganligi, ularning asosiligi, qoʻyilgan muammoning aniqligi, metodologik mukammalligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, Samarqand shahri qarluq shevalarining leksik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalardan oʻzbek tili tarixi va dialektologiyasi fanlarini yangi nazariy fikrlar bilan boyitishda qoʻllash mumkin. Tadqiq etilayotgan mazkur shevalarning leksik xususiyatlarini oʻrganish, uni yondosh hudud shevalari, til tarixi bilan qiyoslash nafaqat oʻzbek dialektologiyasi, balki umumturkiy tillar masalalarini hal etishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, toʻplangan materiallar oliy oʻquv yurtlari, oʻrta maktablar uchun yozilajak darslik va oʻquv qoʻllanmalarini yaratish va toʻldirishda asqotadi. Oʻzbek tilining izohli, imlo, shevalar lugʻatini yangi maʼlumotlar bilan toʻldirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, olingan natija va xulosalar oʻzbek tilining tayanch dialekti boʻlmish qarluq lahjasining ildizi, xususiyatlari haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand shahri qarluq shevalarining leksikasini qiyosiy-tavsifiy tadqiq qilish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mazkur hudud shevalariga doir soʻzlarning yasali usullarining oʻziga xosligi, Samarqand shahri qarluq shevalarini oʻrganishga lingvomadaniy yondashuv yoʻnalishi oldingi oʻringa qoʻyilganligi haqidagi nazariy xulosalaridan 2012-2016-yillarda

bajarilgan №FA-F1-G003 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional soʻz yasalishi” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 7-oktabrdagi 17.01/170-son maʼlumotnomasi). Natijada loyihaning soʻz yasalishining har bir til va shevada oʻzgacha namoyon boʻlishi haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyishiga asos boʻlgan;

Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasida uchraydigan xalq ogʻzaki ijodiga xos janrlar, yaʼni erkalamalar, ovutmachoqlar haqidagi ilmiy-tahliliy xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 7-oktabrdagi 17.01/172-son maʼlumotnomasi). Natijada loyihaning folklorshunoslik va adabiyotshunoslik janrlarining qardosh tillarda uchraydigan xalq ogʻzaki ijodiga xos ilmiy tushunchalar bilan boyitilishiga erishilgan.

Samarqand shahri qarluq shevalari orqali matbuot, radio, televideniye taʼsiri natijasida yuz berayotgan lugʻaviy oʻzgarishlar shevalar lugʻat jamgʻarmasida mavjud boʻlgan soʻzlarni toʻplash, saqlab qolish va ularni adabiy tilga kiritish zaruratini keltirib chiqarayotganligi haqidagi asosli ilmiy-nazariy xulosalardan Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat hududiy boʻlinmasi qoshidagi “Sadoqat” ijodiy toʻgaragining mahorat darslarida Nazm va nasr Kengashi tomonidan oʻtkazilgan ijodiy seminarlarda foydalanilgan (Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 26-avgustdagi №94-son maʼlumotnomasi). Natijada adabiyot ixlosmandlarida oʻzbek adabiy tilining shevalariga nisbatan faxrlanish hamda qiziqish tuygʻusining oshishiga xizmat qilgan.

dialektal sharoitlarda kishilarda muloqot odobini shakllantirishga oid ilmiy xulosa va tavsiyalardan teleradiokompaniyaning “Kun mavzusi” loyihasida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 21-sentabrdagi №01-12/335-sonli maʼlumotnomasi). Natijada eshittirishning mazmunan boy, qiziqarli va jonli boʻlishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni respublika va xorijiy ilmiy jurnallarida, ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallarida eʼlon qilingan 22 ta ilmiy maqola va tezisdagi oʻz aksini topgan. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta, shundan 4 tasi respublika hamda xorijiy mamlakat jurnallarida 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalar, lugʻatdan iborat boʻlib, 159 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiy til taraqqiyotida shevalarning o‘rganilishi va ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Tilshunoslikda shevalarning o‘rganilishi”* deb nomlanib, unda sheva muammosining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi, turkiy tillar bilan munosabati kabi nazariy fikrlar umumlashtirilgan. Tilshunoslikda sheva va lahjalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar dialektal so‘zlarni qanday to‘plash, ularni ilmiy tahlil qilib, tasnif qilish masalalari bo‘yicha yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qilishi, o‘zbek tilining shevalarini boshqa tillarning dialektal materiallari bilan solishtirib, qiyoslash imkonini berishi kabi muhim hamda dolzarb masalalar yoritilgan.

Jahon tilshunosligining dialektologiya sohasida shevalarni o‘rganish bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.A.Batmanov dastlab qirg‘iz tilining shimoliy shevalarini o‘rganib, 1938-yilda *“Qirg‘iz tilining shimoliy dialektlari”* nomli asarida tasnif qildi⁹. Professor S.A.Amanjolovning *“Dialektologiya va qozoq tili tarixchisi”* asarida qozoq tili va qozoq xalqi tarixi masalalari, qozoq dialektologiyasi va hozirgi qozoq adabiy tili masalalari keng yoritilgan¹⁰. Turkman tilining dialektlari, shevalar tasnifi bevosita olim A.P.Potseluevskiy nomi bilan bog‘liq. U o‘zining *“Turkman tilining shevalari”* kitobida ushbu masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan¹¹. Ozarbayjon tili shevalarini o‘rganish yo‘lidagi dastlabki qadam Mirza Kyazimbekning *“Turk-tatar tilining umumiy grammatikasi”* (1839) asari bo‘ldi. U turkiy shevalarning qiyosiy tahlilini o‘tkazdi¹². Tojik dialektlarining lingvistik tadqiqi yigirmanchi yillar davomida sezilarli darajaga ko‘tarildi. Mashhur sharqshunoslar A.A.Semenov, P.E.Kuznetsov, V.S.Rastorguyeva, I.I.Zarubin, M.S.Andreyev, N.A.Kislyakov, A.Z.Rosenfeld, L.V.Uspenskaya, V.S.Sokolova, R.L.Nemanova, A.L.Xromov kabi olimlar tajribasi va ilmiy yutuqlari tojik dialektologiyasining yanada rivojlanishiga olib keldi¹³. Mazkur tadqiqot ishlari bilan tanishib, o‘rganishimiz Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasining taraqqiyot manbalarini, tarixiy tashkil topish jarayonlarini, tarqalish hududlarini ham diaxron, ham sinxron yo‘nalishda aniqlash uchun yordam berdi.

⁹ Batmanov I. A. Северные диалекты киргизского языка: опыт классификации северных диалектов киргизского языка. Выпуск 1. — Фрунзе: Киргизгосиздат,-1938.

¹⁰ Аманжолов С.А. “Вопросы диалектологии и истории казахского языка” . Алма-Ата Казахское государственное учебно-педагогическое издательство, 1959. № 6.- 452 с.

¹¹ Поцелуевский А. П. Диалекты туркменского языка., Ашхабад, -1936. 29 с.

¹² “Мирза Кязым-бека “Общая грамматика турецко-татарского языка”,- 1839.

¹³ Андреев М.С. Краткий обзор некоторых особенностей таджикских говоров/М.С.Андреев. - Ташкент, 1930.-81с. Зарубин И.И. Отчёт об этнологических работах в Средней Азии летом 1926 г/И.И.Зарубин//Известия АН СССР, сер. VI, №5-6. М; 1927. –С.63-74 Расторгуева В.С. Опыт сравнительного изучения таджикских говоров. - Москва, 1964.-187 с. Хромов А.Л. «Говоры таджиков матчинского района»/ А.Л. Хромов// Душанбе.-1962, 215 с.

Dialektologiyaning fan sifatida shakllanishi XVII asar oxirlarida Germaniyada boshlandi. Olimlar olmon xalq shevalaridan mahalliy soʻzlarni aniqlab, shu birliklarasosida lugʻatlar tuzishdi. Shuningdek, nemis tilining xususiyatlarini, lahjalarini qiyoslab, ularning xususiyatlarini yoritib bergan olim N.I.Filicheva¹⁴ sanaladi.

Oʻzbek tilshunosligida til va shevalarni qiyoslab oʻrganish tarixi XI asrda yaratilgan Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lugʻatayn”, “Sabʻatu abhur” kabi asarlaridan boshlab to hozirga qadar yaratilgan koʻpgina ilmiy tadqiqotlar tahliliga bagʻishlangan¹⁵.

Oʻzbek xalq shevalarini oʻrganishga qiziqish XIX asrning boshlariga kelib keng yoyilganiga, bu sohada Gʻozi Olim Yunusov, Y.D.Polivanov, U.Tursunov kabi qator atoqli tilshunoslarimizning asarlarini oʻrganib, ulardan ham Samarqand shahri qarluq shevalariga doir maʼlumotlar, tasniflar koʻrsatishga harakat qildik. Aynan Samarqandda oʻzbek shevalarini yigʻishga qaratilgan ekspeditsiyalar mahsuli hisoblangan “Samarqand shahar shevasining unlilari” (1928), “Samarqand oʻzbeklari tilining namunasi” (1935), “Oʻzbek tilining nayman shevasi” (1963), “Oʻzbek tilining gʻarbiy Samarqand shevalari” (1977) kabi asarlarda aynan oʻrganish obyektimiz hisoblangan Samarqand shahri qarluq shevalari fonetikasi, morfologiyasiga doir qimmatli maʼlumotlarni aniqlashga, ishimizning ilmiy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi materiallarni yigʻishga muvaffaq boʻldik¹⁶.

Qolaversa, oʻzbek milliy adabiy tilining tovush jihatdan shakllanishiga Toshkent shevasi (ayniqsa unli fonemalari nazarda tutilmoqda), Fargʻona shevasining morfologik tuzilishi adabiy tilning tashkil topishiga asos boʻlganligini S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, Gʻ.Yunusov, V.Reshetov, A.Aliyev, Y.Gʻulomov, Sh.Nosirov, H.Uzoqov, H.Ahmedov, X.Doniyorov, N.Rajabov, M.Abdiyev, T.Nafasov, N.Murodova, Sh.Joʻrayev kabilarning ilmiy-tadqiqot asarlari bilan yaqinroq tanishish jarayonida guvoh boʻlgan holda Samarqand shahri qarluq shevalari adabiy til lugʻaviy qatlami rivojiga maʼlum darajada hissa qoʻshganligi aniqlandi¹⁷.

M.Mirzayev Buxoro viloyatining oʻzbek shevalarini anketa usulida oʻrgandi. Mazkur tadqiqot ishi Buxorodagi qarluq lahjasiga xos ikki tilli va bir tilli shevalarning morfologik, fonetik va leksik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Olim shu

¹⁴ Филичева Н. И. Дialeктология немецкого языка. — М.: Выс. школа, 1983. — 192 с.

¹⁵ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.- Тошкент: Фан, 1960.– Б. 498 “Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия” (Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа). - Т.:Фан, 1960.– Б. 280. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том.-Тошкент: Гафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.- Б.103-132.

¹⁶ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.- Т.: “Ўқитувчи”, 1996.- Б. 34-35.

¹⁷ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси, 2, 3. Тошкент, 1959. Шоабдурахмонов Ш. Изучение и задачи узбекской диалектологии. Сб. “Вопросы диалектологии тюркских языков”, Баку, 1958. Решетов В. Некоторые вопросы узбекской диалектологии. Сб. “Вопросы изучения языков народов Средней Азии и Казахстана”, Ташкент, 1952. Ғуломов Ҳ. Ўзбек тилининг Жиззах шеvasи. «Ўзбек диалектологиясидан материаллар», I, тўплам, Тошкент. 1957. Носиров Ш. Кўқон шевасининг баъзи бир лексик хусусиятлари. “Ўзбек шевалари лексикаси”, тўплам, Тошкент, 1966. - Б. 404, 406. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. Тошкент, 1979.- Б.122. Ражабов Н. Ўзбек диалектологияси курсидан материаллар. Қўлланма, Самарқанд. 1962. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида). Филология фанлари доктори дисс.-Тошкент, 2005. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини. Филология фанлари доктори дисс.-Тошкент, 2006. Нафасов Т. Қашқадарё халқ шевалари луғати.- Тошкент, 2010. Жўраев Ш. Тожик тили шеваларидаги ўзбекча ўзлашмалар. Тил ва адабиёт таълими. №10. 2015. – Б. 43-44.

o‘rinda *chakka, kaltacha, o‘g‘urcha* kabi so‘zlar ham faqat Buxoro shevasiga mansub bo‘lib, boshqa yondosh shevalarda umuman qo‘llanmaydi degan xulosani ilgari suradi¹⁸. Samarqand shahri qarluq shevalari bo‘yicha yiqqan materiallarimizda aynan shu so‘zlarning mazkur hudud aholisi nutqida ham hozirgacha faol qo‘llanilayotganini aniqladik.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan shu ayon bo‘ladiki, Samarqand shevalarini o‘zaro bir-biriga kelib chiqishi yaqin bo‘lgan hudud shevalari bilan qiyosiy o‘rganish ancha oldin boshlangan bo‘lib, bu nafaqat tillarning, balki shevalarning ham bir-biriga ta‘sirini, uzviy aloqasini, lug‘at boyligining oshishiga beqiyos ahamiyat kasb etganligini alohida ta‘kidlab o‘tish zarur.

Bobning “*Samarqand shahri qarluq shevalarining qisqacha tasnifi*” deb nomlangan ikkinchi faslida Samarqand shahrining qisqacha tarixi, mahallalarning tashkil topish va nomlanish masalalari “Boburnoma”, Alisher Navoiy, Tohirxoja Samarqandiyning “Samariya”, Xumuliyning “Tarixi mang‘itiyya” kabi asarlari hamda A.Abdurahmonovning “Nechta Urgut bor?” maqolasida berilgan. Shuningdek, mazkur hududning boshqa shevalardan farqli jihatlari, o‘ziga xosliklari misollar yordamida asoslanib, xulosalar chiqarilgan.

Samarqand shahri qarluq shevalarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi. Ushbu masalalarga dialektolog olimi N.Murodova ham “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida to‘xtalib o‘tgan¹⁹. Shuningdek, hudud shevasining boshqa sheva va lahjalardan ajralib turadigan xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatib o‘tish lozimligini ta‘minlashdan maqsad ham Samarqand shahri qarluq shevalari haqida yanada yorqinroq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi:

Dastlab qisqacha fonetik xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, yig‘ilgan materiallarimizda unli tovushlar 6,7 tagacha bo‘lishi kuzatildi: *i, u, ā, ä, o, ö, e*. Aynan shunga doir ma‘lumotni, qolaversa, Samixon Ashirboyev, N.Murodovalar darsliklarida ham kuzatishimiz mumkin²⁰.

Mazkur shevada adabiy tildagi so‘zlarning unli tovushlari almashinib talaffuz qilinadi:

[ā>ä] *olma/älmä, piyola/pijälä, bola/bäcä, to‘rtov/tortäv, kuyov/kujäv* va hokazo. Chunki v undoshidan oldin o emas balki ä unlisining kelishi bilan xarakterlanadi.

[ä > ā] *usta/ustā, po‘lat/polād, ketyapti/ ketāpti, boryapti/ bārāpti, tilla/ tillā* kabi. Bu holat tojik shevalarining qanchalar Samarqanddagi qarluq shevalariga kuchli ta‘sir ko‘rsatganligidan dalolat berib turibdi.

Ma‘no farqlamaydigan ikkinchi darajali cho‘ziqlik holati ham ko‘p kuzatiladi: *dugā:na, dolā:na, pijā:va, ke:lin, dāmmā:d, polā:d, šā:na, kadu:* kabi.

So‘z tarkibida ikkita har xil undoshning bir-biriga moslashib, bir xil talaffuz qilinishi, ya‘ni assimilyatsiya hodisasi uchraydi: *kelli (keldi), bolli (bo‘lli), kammayäl (kambag‘al), bāddu (bordi), massi (mahsi)*.

¹⁸ Мирзаев М. Дialeктал сўзлар (Бухоро диалекти материаллари бўйича) // Ўзбек шевалари лексикаси. Тошкент, 1966.- Б.314.

¹⁹ Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. Дарслик.-Тошкент, 2019.-Б.113.

²⁰ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: “Nodirabegin”, 2021.-В.32. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. Дарслик.-Тошкент, 2019.-Б.113.

Samarqand shahri qarluq shevalarida l, r, t kabi undoshlardan birining soʻz oʻrtasida tushib qolishi ham uchraydi: *däsäxän/ dastarxon, ketur/ keltir, tor/ toʻrt, däsromäl/ dastroʻmol, binnimä/ bir nima* va hokazo.

Soʻz oxirida qator undosh sifatida qoʻllaniladigan t tovushi tushirib talaffuz qilinadi: *goš/goʻsht, yiš/gʻisht, sus/sust, Tāškän/Toshkent, dos/doʻst* kabi.

Biz oʻrganayotgan shevaning morfologik xususiyatalari ham oʻziga xosliklarga ega. Masalan, -lar koʻplik qoʻshimchasi -ä, -lä koʻrinishlarda uchraydi: *Ulä kelišdi. Bizä kettik.*

Oltita kelishik toʻrt xil shaklda qoʻllaniladi. Qaratqich va tushum -ni qoʻshimchasi bilan, joʻnalish va oʻrin-payt kelishiklari -ga qoʻshimchasi koʻrinishida uchraydi: *Ujgä qälli.* (Uyda qoldi.) *Bäläni xayäli pärišän* (Bolaning xayoli parishon.)

Shuningdek, qaratqich kelishigi qisqarib, -i unlisi bilan ham ifodalanishi mumkin: *Bizi ujimiz.* (Bizning uyimiz.)

Joʻnalish kelishigi qisqarib, -ä, -jä koʻrinishida uchrashi mumkin: *Kočajä čiqmä.* (Koʻchaga chiqma.) *Sizä gäpim bär.* (Sizga gapim bor.)

Mazkur shevada -dan chiqish kelishigi assimilyatsiya hodisasiga uchrab, -zän variantida qoʻllanilishi mumkin: *Ällizän otäppan.* (Oldingizdan oʻtyapman.) *Dugonajizzän ällim.* (Dugonangizdan oldim.)

Samarqand shahri qarluq shevalarida u, bu, shu, oʻsha olmoshlariga qoʻshilib keladigan -dek, day qoʻshimchalari oʻzgacha koʻrinishda, yaʼni *undäq, munnäy, ošändäq* tarzda qoʻllanadi. Koʻrsatish olmoshining unaqangi, bunaqangi kabi variantlari esa *unnoyčigin, munnoyčigin* shaklda aholi nutqida uchraydi.

Hozirgi zamon davom feʼlining -yap varianti -äp shaklida uchraydi: *bäräppan, keläpti, ajtäpti* kabi.

U, bu, shu, oʻsha ravishlariga yoq, yer, tomon soʻzlarini qoʻshish bilan shakllangan yasama ravishlar shevada *ošäqqä, šeqqä, äqqä, beqqä* koʻrinishlarda uchraydi.

Ushbu shevada payt ravishlariga mansub soʻng, keyin maʼnosida *soyun, soyunbät, sänibät, äkunbät* tarzida qoʻllanilishini aniqladik.

Shuni alohida taʼkidlashimiz lozimki, Samarqand shahridagi mavjud shevalarning asosan fonetik, morfologik xususiyatlarini atroflicha oʻrganish aynan mashhur sharqshunos olim professor Y.D.Polivanov nomi bilan bogʻliq. Olimning Samarqand shahar shevalari boʻyicha yaratgan ishlari hozirgacha oʻzining qimmatli ahamiyatini yoʻqotgan emas.

Bobning “*Shevalarni oʻrganishda lingvomadaniy yondashuv*” deb atalgan uchinchi faslida Samarqand shahri qarluq shevasining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish galdagi muhim vazifalardan biri boʻlishi bilan birga, buning amalga oshirilishi oʻzbek dialektologiyasi uchun qimmatli material boʻlib xizmat qilishi toʻgʻrisida fikr bildiriladi.

Aholi yashash hududining etnografik jihatlarining lingvomadaniy xususiyatlarini har tomonlama va keng tadqiq etish tilshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tahlil etilayotgan hududda adabiy tilda uchraydigan urf-odat nomlarining Samarqand shahri qarluq shevalarida oʻzgacha nomlanishini uchratishimiz mumkin. Bu shevalarning oʻxshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishda qoʻl keladi. Nafaqat

turli xalqlar, balki har bir millatning tarkibidagi sheva vakillari borliqdagi tovushlarni turlicha eshitishadi va tilda ifodalashadi. Jumladan, talaygina o‘zbek shevalari kurka parrandasining chiqaradigan o‘zgacha tovushini “kurk-kurk” sifatida ifodalashsa, Samarqand shahri qarluq sheva vakillari nutqida “g‘ul-g‘ul” deb eshitishadi. Shu sababdan ham g‘ulg‘ultovuq deb atashadi. Yoki biror buyumning ko‘zni olar darajada yaltirashini “yalt-yult”, “yarq” kabi so‘zlar bilan atash kuzatilsa, Samarqandda “yalaq-yuluq”, “jaraq-juruq” tarzida nomlashadi. Shuningdek, kimningdir qattiq baland ovozda baqirib urushishini “ar-ar qilmoq”, “chir-chir qilmoq” tarzida ifodalanadi.

“Samarqand shahri qarluq shevalarining leksik xususiyatlari” deb atalgan ikkinchi bob uch fasldan tashkil topgan. “SSHQSh so‘z boyligining leksik-semantik guruhlari” deb nomlangan birinchi faslida Samarqand shahri qarluq shevalarining leksik xususiyatlari misollar yordamida yoritib berilgan va ma‘naviy guruhlarga bo‘lingan.

Samarqand viloyati shevalarini shartli ravishda 3 guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qilardik: 1-guruh: qarluq lahjasiga mansub shevalar; 2-guruh: o‘g‘uz lahjasiga mansub shevalar; 3-guruh: qipchoq lahjasiga tegishli shevalar.

Samarqand shahri qarluq shevalari Yuqori Qashqadaryo, Buxoro, Qorako‘l, adabiy til bilan ba‘zi o‘rinlarda mushtaraklik hosil qilsa-da, ammo o‘ziga xos tor dialektal xususiyatga ham ega ekanligi bilan xarakterlidir.

Yuqori Qashqadaryo shevasi Buxoro shevasiga nisbatan Samarqand shahri shevalariga yaqinligini aholi nutqida qo‘llaniladigan ayrim so‘zlar misolida ko‘rib o‘tishimiz mumkin²¹.

Yuq.Qash.shevasi	Sam. shevasi	Bux. shevasi	O‘z. ad. tili
Ālvāle	ālbālu	gelās	olcha
Surpā	surfā	postāk	supra
Surxāk	surxāk	xālili	chillaki
Qālpāg‘	qālpāq	kālapoš	do‘ppi
Xāmišāk	xāmšāk	pāššä	iskabtopar

Shuningdek, Samarqand shahri o‘zbek shevalari bo‘yicha to‘plangan so‘zlar 14 ta leksik-semantik guruhlarga bo‘lib tahlil qilindi:

1. Uy-ro‘zg‘or anjomlari leksik-semantik guruhi (LSG): *Ābčinak* (yupqa papiros qog‘ozi), *āftāva* (obdasta), *ajnak* (ko‘zoynak), *arṡānčāk* (arg‘imchoq), *belinčāk* (belanchak), *ālqundi* (ishlatilgan sovun qoldig‘i), *bāzbarrāk* (varrak), *šamāltijāk* (yelpig‘ich), *korpāj-u bālišť* (ko‘rpa-yostiq), *lajli* (quda tomonidan olib kelinadigan sovg‘a-salomlar; patnis) kabi.

2. Oziq-ovqatga oid LSG: *konārgä* (tomizg‘i), *ogrā*, *āšiārd*, (ugra), *āburoyan-palov* masalliq-lari, *barak* (chuchvara. Turlari: *puđinābārāk*, *kādubārāk*, *go‘shbārāk*, *hāvobārāk*), *māstāvā* (mastava), *bičāk* (yupqa xamir ichiga qovoq yoki o‘t solib pishiriladi. Bichak turlari: *kādubičāk*, *ālāfinbičāk*, *kābāčkibičāk*), *yelāk*- yong‘oq kattaligidagi qiyma go‘sht. Asosan sho‘rvaga solinadi. Ovqatning *yelāk šorbā* deb nomlanishi ham shundan.), *turšākāb*- quritilgan o‘rikdan tayyorlanadigan kompot,

²¹ Ўзбек шевалари лексикаси. Тошкент: Фан, 1966. Б.179

dānākšorāk- tuz va qum bilan qozonda qovuriladigan o‘rik danak, *fällä*- og‘iz suti, *žinäk* - kuyib ketgan go‘sh, *piyāvā*- masallig‘i kam suyuq ovqat, *nimxām* - chala pishirilgan tuxum, *hālisā*- halim. Bug‘doy yormasi, go‘sh va yog‘ bilan katta dohqozonlarda pishiriladigan ovqat, *šoläkādu*- kadi solib pishiriladigan shovla, *čälāmäfätir*- ichiga sapcha qovoq, piyoz solinib yopiladigan yupqa non.

3. Binokorlikka oid LSG: *Hävli-žāj* (uy-joy, xonadon), *bām* (uyning tashqi tomondagi tepa qismi, ya‘ni tom), *šift/šif* (uyning ich tomondan tepa qismi, ya‘ni ship), čerdäk (tom bilan ship oralg‘idagi bo‘shliq joy), *bālāxānā* (tepadagi uy, xona), *dudburā* (mo‘ri, ya‘ni oshxona, pechka, o‘choq kabilarning tutun chiqib ketadigan joyi) kabi.

4. Mehnat anjomlari LSG: *Ābtārāzu* (qurilayotgan g‘isht devorning tekisligini o‘lchash uchun ishlatiladigan mehnat anjomi), *peštāb* (vintni buraydigan asbob), *gāčxāk* (devorlarni shuvash uchun elakdan o‘tkaziladigan qum aralashtirilgan ganch), *girā* (iskana) va hokazo.

5. Kiyim-kechakka oid LSG: *ārāxčīn* (yupqa yozgi do‘ppi), *qālpāq* (do‘ppi), *kältäčä* (mursak. Aza kunlari ayollar kiyadigan maxsus ustki kiyim), *tumāq* (quloqli issiq qalpoq, quloqchin), *nif* (lippa) va boshqalar.

6. Etnografizmlarga tegishli LSG: *Āzākišājān* (azadan chiqish uchun o‘tkaziladigan ayollar yig‘ini), *mā‘rākā* (to‘y va azalarda o‘tkaziladigan har qanday yig‘in, o‘tirish), *yep-ičār* (ziyofat), *jirtiš* (vafot etgan kishining xotirasi uchun ko‘mish marosimida qatnashganlarga beriladigan bir parcha oq surp) kabi.

7. Bolalar nutqiga oid LSG: Ma‘lumki, barcha o‘zbek shevalari qatori Samarqand shevasi ham o‘ziga xos rang-baranglikka ega. Xususan, yosh bolalar nutqini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, ularning nutqini suhbatlashish, fikrlashga undash, tafakkurini o‘stirish ehtiyoji orqali o‘stirish mumkin. Bu jarayonning muhim jihati shundaki, bolalar talaffuzi hamda axborot olish va o‘rgatishdan iborat. Ota-onalar uchun ham bola bilan tez muloqotga kirishish, biror yumushni bajartirish jarayonida biroz murakkablikka duch kelinadi. Xususan, B.Jo‘rayev “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi” mavzusidagi yirik tadqiqotida bolalar tilida uchraydigan ba‘zi so‘zlarni kiritgan²². Biz ham shunga asoslanib, bolalar nutqiga xos so‘zlarni quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rgandik:

a) Oziq-ovqat nomlarini ifodalovchi leksemalar: *nānā* (non), *āšā* (ovqat), *buvā* (suv), *ququ*, *dunduq* (tuxum), *kaka* (biror bir shirinlik turi); **b) Hayvon va qushlar nomi bilan bog‘liq leksemalar:** *bābā* (kuchuk, biror bir kattaroq hayvon yoki biror bir maxluq), *titi*, *kuku* (qush), *mo* (sigir), *be* (qo‘y), *piši* (mushuk) **c) Ish-harakatni anglatuvchi leksemalar:** *Māmā*, *māmām*, *māmāq berāymi?* (emasanmi?), *njam njam qil* (ye), *hāppi qil* (yut), *aa qilāsānmi?* (katta hojat qilasanmi?), *čiš* (kichik hojat qilish), *ufä bollimi?* (og‘ridimi?) kabi.

8. Kasb-hunar nomlariga oid LSG yana o‘zaro 12 ta ichki guruhlariga bo‘linib tahlil qilindi: **a) Oziq-ovqat bilan shug‘ullanuvchilar:** *āšpāz*, *naxotfuroš*, *sambozapaz*, *salitči*, *mazalekči* kabi; **b) Qurilish sohasida ishlovchilar:** *ājnasāz*, *ustā*, *iškafsā*, *yišrez*, *kaminsāz*, *pečkasāz*, *kafelčīn*, *andāvači*, *parnikči*, *paxsači*, *quduqkāv* kabi; **c) Savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchilar:** *čekči*, *bāzārqom*, *nānfuroš*, *furošanda*, *māšinfuroš*, *qällämāpāz*, *nāsfuro*, *qālpāqfuroš*; **d) Transport vositalarida**

²² Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990.- Б. 62.

ishlovchilar: *šofir, tāksiçi; e) Marosimlarda xizmat qiluvchilar:* *murdāšo, pākšoj, gorkāv, bexālfā, mijānārā, ogrābu; f) Uy-ro‘zg‘or, mehnat anjomlarini yasash bilan shug‘ullanuvchilar:* *durezgār, sāndoqsāz, āhāñār, kālānsā, pāñžārāsāz, tānorsāz-* tandır yasovchi usta, *gāvārāsāz, kārdsāz, čārxcī; g) Tikuvchilik bilan bog‘liq kasb egalari nomlari:* *lāgāndāçi, tintinçi, bāfāndā, māšināçi, žāhākdoz, korpāčādoz, burrāndā* kabilar.

9. Shaxs va narsalarning xususiyat, holatini ifodalovchi LSG: *Āši-tāši* (mo‘l-ko‘l), *ālus* (g‘ilay ko‘z), *bādburuš* (beo‘xsho‘v mo‘ylovli kishi), *bozbālā* (baquvvat, kuch-quvvatli erkak kishiga nisbatan ishlatiladi), *gulāb* (pushti rang), *guppi* (lofchi), *zubbijā* (g‘arq pishgan), *mārbāz* (ayyor) kabi.

10. Shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi LSG: *Hābāzi* (cho‘milish, suvda suzish), *āruy bermāq* (kekirish), *ārāx qilmāq* (terlamoq), *idrāmāq* (so‘lib, buzilib qolmoq), *purs-i žoj* (so‘rab-surishtirish. *Ājlānāj, dāmmād tārāfni āqqāl pursi-žoj qildilāruñmu?*) va boshqalar.

11. Uy va yovvoyi hayvonlar, hasharot nomlariga oid LSG: *Āxurij* (bo‘rdoqi qo‘ylar, ya‘ni qo‘lda boqiladigan semiz qo‘ylar), *mādā* (urg‘ochi), *tāvušqān* (quyon), *gosālā* (buzoq), *gāždum* (chayon), *pišāk* (mushuk), *xārpuš* (tipratikan), *muš* (sichqon) va hokazo.

12. Ish-harakatning belgisini bildiruvchi LSG: *Āndāk* (biroz), *āndāktār* (sal keyinroq), *bā* (yana. *Mehmānžānla, bā jana kelinglä.*), *ba:d, soyn, bā:dāz* (keyin), *dukkāsā* (ikkovlashib), *lāhās* (betoqat), *nāxās, nāxāstdān* (kutilmaganda) kabi.

13. Meva va sabzavot nomlariga oid LSG: *Āškādu* (ovqatlarga solinadigan qovoq), *ālāfi* (oq jo‘xori ko‘kpoyasi, don solmaydi, mollar uchun yemish sifatida ekiladi), *bājimžān* (baqlajon), *qārāqārāqçi* (qora uzum turi), *zāmičā* (handalak), *zārdālu* (o‘rik. Turlari: *holuñi zārdālu*) va hokazo.

14. Kasallik nomlariga xos LSG: *Tumāq* (tumov), *qučānāq* (chaqaloqlarda dastlabki oylarda kuzatiladigan kuchanishga o‘xshash holat), *quyānčiq* (epilepsiya kasalligi), *nāzlā* (burun yo‘llarida kuzatiladigan kasallik), *gomižžā* (ko‘zga chiqadigan teskan kasalligi), *γurri* (zob) kabi.

Zero, o‘zbek dialektologiyasi fanida so‘zlarni leksik-semantik guruhlariga bo‘lib o‘rganish o‘zbek tili va shevalar bo‘yicha leksik birliklarning barchasini to‘plab, qiyosiy-tarixiy va etimologik jihatdan tadqiq etish ikki tilli hamda shevalar izohli lug‘atlaridagi chalkashliklarning bartaraf etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bobning “*Leksik birliklarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari*” deb atalgan ikkinchi faslida hudud shevalaridagi so‘zlar omonimiya, sinonimiya, antonimiya, paronimiya hodisalari bo‘yicha tahlil qilingan. Shevaning yanada ta’sirchan, rang-barang, ifodali bo‘lishi uchun leksik sinonimlar, qarama-qarshilik uchun antonimlar, turli xil ma’nolarni ifodalovchi omonimlar va ko‘p ma’noli, talaffuzdosh so‘zlar faol qo‘llanilishini hisobga olinib, alohida-alohida to‘xtalib, tadqiq etilgan.

Leksik omonimlar shevalarda bir so‘zning turli xil ma’nolarni anglatishi asosida yuzaga keladi. Masalan, *qars* so‘zi Samarqand shahri qarluq shevalarida ikki ma’noda qo‘llaniladi. Biri taqlidiy so‘z hisoblanib, narsalarning bir-biriga qattiq urilishidan, sinishidan va shu kabi holatlardan hosil bo‘ladigan tovushlarni anglatadi: *Hāvlidā*

nimädur qärs etti. Ikkinchi ma'nosi kekxa xotinlar o'raydigan yupqa oq matodan qilingan ro'mol. Bu so'z, shuningdek, Jizzax shevalarida ham xuddi shu mazmunda ishlatiladi: *Fätjähänigä qärsiñni oräb či:q.*

Samarqand shahri qarluq shevalarida ma'nodoshlikning yuzaga kelishi asosan boshqa tillardan yoki shevalardan so'z qabul qilish orqali yuzaga kelganligini alohida ta'kidlash lozim. So'z o'zlashtirish tojikcha, arabcha hamda rus-Yevropa leksik birliklaridan lug'aviy qatlamning boyligini kuzatish mumkin. Bunday o'zlashmalar shevalarda mavjud bo'lgan ayrim so'zlarga sinonim bo'la oladi. Xususan, rus tilidan o'zlashgan doktor, vrach so'zlari SShQShlarida *duxtur, viräç; stolovoya istäläväj, äšxänä;* taksist so'zi *šāfir, täksiçi* tarzida sinonimik qatorni tashkil qiladi.

Sifat antonimlar: *gärän- bälä, xorä-chimxor, äsän- qijind, päjgäk-tor, ixčämäkäk- besonäqäj, täzä/ äzädä- i:sliqi, kälän-u gärän- xurdi;* ad.orf. grang- balo/ ustomon, xo'ra- chimxo'r, oson- qiyin, poygaak- to'r, ixcham- beso'naqay, top-toza- isqirt/kir, katta-kichik.

Ravish antonimlar: *piçi- mol, ästä- tez, därün- berün, sähär märdän- keçqürün, beixtijär- jorttäbä;* ad.orf. kam-ko'p, asta-tez, ichkari-tashqari, tong- kechqurun, beixtiyor- jo'rttaga.

Tilning omonimiya, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi munosabatdosh leksik-semantik guruhga kiruvchi paronimiya hodisasi o'zbek tilining, shevashunosligining milliy xususiyati va ontologik tabiatini o'zida namoyon qiluvchi hodisa sifatida ahamiyatli. Xususan, paronimlar ma'lum tovush bilan farqlanuvchi leksemalar qatori hisoblanadi.

Biz ham mazkur mezonlardan kelib chiqqan holda Samarqand shahridagi qarluq shevalari yuzasidan to'plangan materialimiz tarkibidagi ayrim paronimlik juftliklarni ko'rib chiqamiz.

Doqqi- notekis yoki tekis bo'lmagan sirtga ega; silliq yoki tekis emas. Ma'nosiga ega sifat turkumiga mansub so'z. *Hoqqi-* muomalasi qo'pol, zardali, beandisha bo'lgan kishi.

Olus- ko'zlari ikki chetga siljib qolgan g'ilay ko'z. *Olis-* oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan uzoq masofani anglatadi.

Mädä- biror bir parrandaning, qushning urg'ochisini anglatadi. *Me'dä-* kishining ovqat hazm qilish a'zolaridan biri.

Bä- avval bo'lgan ish-harakat, narsa-hodisaning takror yuz berishini boshlanishi va davom etishini bildiradigan tag'in, yana so'zlarining shevadagi varianti. Be-ajablanishni, hayronlikni yoki norozilikni ifodalovchi iye, iyya kabi undov so'zlarning dialektal varianti.

Millä- odamning bosh terisida o'sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri, ya'ni soch ma'nosida. *Hillä-* amalga oshirish, bajarish qilish imkoni, chorasi mazmuniga ega lug'aviy birlik.

Ko'rib turganimizdek, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, paronimiya juda murakkab va o'zgaruvchan hodisalar bo'lganligi sababli tilda darhol paydo bo'lmaydi va bosqichma-bosqich amalga oshib yuzaga keladigan jarayon sanaladi. Matn tarkibidagina so'zlarning turli ma'nolari anglashiladi. Ma'lum bir sheva vakillari nutqida bunday so'zlardan ma'lum bir uslubiy maqsadlarda foydalanadilar. So'zlarning

shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining tilda ko'p uchrashi umum o'zbek adabiy tili hamda barcha, jumladan, tadqiqot obyektiga xos shevalarning leksik-semantik qatlamlarini chuqurroq tadqiq qilish, maxsus izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Ikkinchi bobning "*Hudud shevalarining leksik qatlamlari va ikki tillilik*" deb nomlangan uchinchi faslida sheva lug'at boyligining oshishida o'zlashma so'zlar, xususan, fors-tojik, rus tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklarni chuqur tadqiq etish qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalaridan biri hisoblanishi yuzasidan fikrlar ilgari surilgan.

Ayniqsa ruscha o'zlashmalar Samarqand shahri qarluq shevalarida o'zining sinonimlariga ega emas, balki ma'lum bir aniq tushunchalarni anglatgani uchun ham faol qo'llaniladi. Qolaversa, dialektolog olimi N.Murodova ham o'zbek tili va uning shevalariga rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'tgan so'zlarni mavzuiy guruhlariga bo'lib tasniflaydi. Mazkur birliklarning sheva vakillari nutqida turli fonetik o'zgarishlarga uchraganligini alohida ta'kidlaydi²³.

Nazarimizda mazkur fikr asosli bo'lib, ruscha o'zlashmalar Samarqand shahri qarluq shevalarida qo'llanadi. Bunday birliklarni ko'plab faoliyat sohalorida uchratishimiz mumkin:

1. Texnika nomlarini ifodalashda: *māshin* (avtomashina), *aftābus* (avtobus), *trāmbāj* (tramvay), *tilpān* (telefon), *tilbizār* (televizor), *ustāl* (stol-stul), *pājiz* (poezd), *mātor* (motor) va hokazo.

2. Unvon va kasb nomlari: *mili:sā* (militsiya), *präkrār* (prokuror), *buyalti:r* (buxgalter), *duxtü:r* (doktor), *direkti:r* (direktor), *süd* (sudya), *fermir* (fermer), *māntor* (montyor), *präfesār* (professor), *dätsen* (dotsent) kabilar.

3. Davlat muassasalari nomlari: *detsät* (detskiy sad), *intirnät* (internat), *zävāt* (zavod), *dāmātdix* (dom otdixa), *letsij* (litsey) va hokazo.

4. Kiyim va poyafzallarning nomlari: *bürük* (bryuki), *kästüm* (kostyum), *pätinkä* (botinki), *käloč* (galoshi), *žimpir* (jemfer), *pältä* (palto), *kerzävāj* (kerzoviye sapogi), *šarti* (shorti) kabilar.

5. Oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari: *boličkä* (bulochka), *pičini* (pechenye), *vāflik* (vafli), *präjnik* (pryaniki), *bolkä* (buxanka non), *mārāžni* (morojenoye), *kifir* (kefir) va hokazo.

6. Uy-ro'zg'or buyumlari: *loškä* (lojka), *skävärātka* (skovoroda), *duxāfkä* (duxovka), *piltä* (plita), *xälädelnik* (xolodilnik), *mikrävālnāfkä* (mikrovolnoviy pech) va hokazo.

7. Uy-joylarning nomlari va ularning qismlari: *čirdäk* (cherdak), *verän* (veranda), *kälidār* (koridor), *bälkän* (ayvon) kabilar.

8. Turli xil tushunchalarni ifodalashda: *äbreskä* (obrezka), *pädärkä* (podarka), *ātdix* (otdix), *prävä* (voditelskiye prava), *zinäk* (znak), *nüümüir* (nomer), *pāviskä* (povestka), *ispräfkä* (spravka) kabilar.

O'zbek shevalari, xususan, Samarqand shahri qarluq shevalari lug'at tarkibining taraqqiyotida o'zlashma manba sifatidagi ta'sirini chuqur va keng yoritish, adabiy tilga qiyoslab o'rganish zarur. Shunga ko'ra, umuman, o'zbek shevalariga o'zga tillardan qancha so'z o'tganligini, ularning asosan qaysi sohalarga oidligini aniq bilmaymiz.

²³ Murodova N. Ўбек диалектологияси.- Тошкент, 2019.- Б.91-92.

Mazkur masalalarni atroflicha tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Ikki tillilik, ko'p tillilik hodisalari dolzarb masalalardan hisoblanib, O'zbekistonda o'zbek-rus, o'zbek-tojik, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman, o'zbek-tatar, o'zbek-qozoq, o'zbek-qoraqalpoq kabi bilingvizm holatlari hozirgacha deyarli chuqur va atroflicha o'rganilgani yo'q.

Mazkur hududdagi ikki tillilik hodisasini yanada aniq tushunish uchun tahlilga tortmoqchi bo'lgan so'zlar misolida ko'rib chiqishni ma'qul deb bildik.

Oziq-ovqatga doir so'zlar: palov// *āšpäläv*, ugra// *ogrā*, halim// *hālisä*, chuchvara// *bäräk*, suzma// *čäkkä*, qatiq// *žiryāt*, qatlama// *qällämä*, shavla//*šolä* kabi.

Xarakter-xususiyatga xos so'zlar: muttaham// *hännät*, sho'x// *häñi*, qo'pol, qo'rs// *hoqqi*, ayyor//*mārbāz*, anqov//*gārāñ*, *goläx*, jaljalkash// *žāñärä*, ustomon//*bälä* kabilar.

Qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar: ota// *dädä*, ona// *biji*, *äjä*, *ājä*, buvi// *ānä*, *totä*, *äkä*, uka// *ukamlä*, *dädär*, opa// *ājti*, *ātāb*, tog'a// *tāyā*, amaki// *ämäk*, pochcha// *pāččä*, xola// *xälämlä*, qaynona// *bijimlā*, kuyov// *dämmäd*, *kujäv* kabilar.

Zero, o'zbek va tojik qarindosh millati vakillari nutqiga xos boy materiallarni o'zaro qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Kuzatuvlarimiz davomida ikki tilda muloqot qiluvchi sheva vakillari so'zlashganda bevosita bir-biridan so'z o'zlashtirish asnosida adabiy tildan farqli o'laroq, hududiy so'zlashuv me'yori shakllanganligining guvohi bo'ldik.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Samarqand shahri qarluq shevalarida qo'llaniluvchi frazeologizmlarning xususiyatlari**" deb nomlanadi.

"*Shevaga xos frazeologizmlarning lug'aviy tarkibi*" deb nomlanuvchi uchinchi bobning birinchi bo'limida jahon va o'zbek tilshinosligida yaratilgan tadqiqotlarga to'xtalib, Samarqand shahri aholisi nutqida uchrovchi frazeologizmlarni yoritib berganmiz. Zero biz tahlil qilayotgan obyektimiz Samarqand shahri qarluq shevasi vakillari nutqi bo'lib, ularda uchraydigan dialektal frazeologik birliklar semantik jihatdan xilma-xildir.

Frazeologik iboralarning leksik sostavini o'rganishda ular tarkibidagi komponentlarning doimiy qo'llanishi (bir yoki bir necha shevalarda), ma'no jihatdan turg'unligi kabi xususiyatlar hisobga olinishi lozim. Frazeologik iboralarni leksik xususiyatlariga ko'ra: 1) komponentlari o'zbek adabiy tilida aktiv qo'llanuvchi so'zlardan tashkil topgan; 2) komponentlari tor doirada (ma'lum dialekt va shevalardagina) qo'llanuvchi gruppalariga bo'lish mumkin²⁴.

Birinchi guruhga oid iboralar keng miqyosda qo'llanilib, ular deyarli hamma shevalarda, adabiy tilda ishlatiladi. Tabiiyki, dilaketlarda ular fonetik, grammatik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Jumladan, bunday so'zlarning tovush tarkibi turli xil fonetik o'zgarishlarga uchraydi:

n>m *ämmämi buzāyi*, da>ga *bāšigä yänñāq čäqmāq*, su(v)gä *tušgän pišäkdäk*, koñlidä *čirki joq* va hokazo.

²⁴ Туробова М. Ўзбек шевалари фразеологияси// Абдурахмонов Д., Содиков Т., Носиров Ш., Туробова М. Ўзбек шевалари лексикаси. -Т: Фан, 1991.- Б. 190

Ikkinchi guruhga mansub frazeologik iboralarning komponentlari tor doirada tarkibiga kiruvchi birliklar sanalib, adabiy tilda qoʻllanilmaydi. Ular maʼlum bir sheva doirasidagina qoʻllanilib, oʻz mustaqil maʼnolarni yoʻqotib, koʻchma mazmunga ega boʻlib, ibora tarkibida yonidagi soʻzlar bilan birga yaxlit bir mazmun kasb etadi: *ävāzaj-u dārvāzā qilmāq* (hamma yoqqa ovoza qilmoq), *äle-bäle qilib yurmoq* (murosa qila olmoq), *är-är qilmāq-* (urushmoq), *mijāmni giž qimā* (boʻlar-boʻlmas gaplarni gapirib boshimni ogʻritma), *simjān silliq* (oʻta oriq kishilarga nisbatan qoʻllaniladi), *itigājām-pittigājām arāzlämāq* (boʻlar-boʻlmas narsalarga arazlamoq) va hokazo.

Samarqand shahri qarluq shevalarida qoʻllaniluvchi yuqoridagi iboralar tarkibida qoʻllaniluvchi *ävāzaj-u dārvāzā, äle-bäle, giž, simjān, itigājām-pittigājām* soʻzlarining mazkur sheva vakillari nutqida alohida ishlatilishini uchratmadik. Ular faqat iboralar tarkibidagina qoʻllaniladi.

Qolaversa, xalq nutqini kuzatganimizda, ikki til, yaʼni oʻzbekcha-tojikcha soʻzlarning chatishmasidan hosil boʻlgan iboralar borligiga guvoh boʻldik: *maņa dārđi sār bolli* (boshogʻriq boʻlmoq), *äspi qašqadak* (nomdor, hammaga maʼlum), *dimāqaš čāy budas* (xushkayfiyatda boʻlmoq), *iškallaš butun* (kam-koʻstsiz), *har maqāmba yoryala qilmāq* (istagan ishini qilmoq), *til bilmās* (kishilar bilan kelisholmaydi, murosa qilolmaydi), *qāš-u qavāq qilmāq* (kayfiyatsiz, norozilik qiyofasida boʻlgan kishilarga nisbatan qoʻllanadi), *qiliqi nav čiqarmāq* (kutilmagan ishlar boshlamoq), *qijma- qiyma qilli* (qattiq urish), *xun-xun yiylamāq* (qattiq kuyinib yigʻlamoq), *gārdānigā ālli* (tan olmoq) va hokazo.

Har qaysi shevada uning kundalik hayotini, kasb-korini, urf-odatlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklar mavjudki, bular sheva vakillari nutqini kuzatganimizda yaqqol namoyon boʻladi. Jumladan, Samarqand shahri qarluq sheva vakillari leksikonida iboraning bir komponenti mustaqil qoʻllanilmaydigan, lugʻaviy maʼno anglatmaydigan soʻz va aksincha maʼno anglatuvchi feʼl soʻz turkumiga oid birlikning qoʻshilmasidan tashkil topgan frazemalar diqqatimizni tortdi: *ätāq-u pätāqni äytmāq* (qalangʻi-qasangilarni taklif qilmoq), *čir-čir qilmāq* (baqirmoq), *itigājām-pittigājām arāzlämāq* (boʻlar-boʻlmas narsalarga arazlamoq), *pixi qajtarilgān* (uddaburon, olgʻir kishilarga nisbatan qoʻllaniladi), *lev qilmāq* (ustomonlik bilan narsa oʻmarmoq), *tili čučälä* (tili soqov), *dästāk-pājāk qilmāq* (2-3 oyligidan boshlab chaqaloqni chalqancha yotqizib, oʻng oyogʻini chap qoʻliga, chap oyogʻini oʻng qoʻliga dam solib tekkizish va gimnastika qildirish), *xändä-xärish qilmoq* (qoʻl uchida, nomiga, chala ish qilmoq), *änäl bolib qālmāq* (hayron boʻlib berilib qolmoq), *beh-behlāb turmāq* (biror ishni qilishga kimnidir tergab, undab turmoq) kabilar shular jumlasidan.

Adabiy tildagi “beshik kerti” iborasi (oldinlari qiz chaqaloqni beshiklik paytidanoq uni biror bir yaqin kishilardan biri kelin qilish maqsadida oʻgʻliga soʻrab, chaqaloqning ota-onasi roziligini olish marosimi. Hozirda bu udum yoʻqolib ketgan.) shevalarda turlicha ataladi: Samarqand-Buxoro shahar shevalarida *gävārä baxš qilinmāq// baxšändä qilinmāq*; Yuqori Qashqadaryo shevalarida *etä jittiš qilmāq, baxšännä qilmāq*; Toshkent shevasida *bešij ketti qilingān yoki qulāyi tišlängān* singari iboralar bilan beriladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, Samarqand shahri aholisi nutqida tojik tili shevasiga xos izofali birikma koʻrinishidagi iboralar uchraydi. Jumladan, “kābutāri

dubāmā”- har narsaga mas’uliyatsiz yondashadigan kishi ma’nosida, “nāxotāki peši qāšūq bolmāq”- bo’lar-bo’lmas narsaga aralashavermoq, “gosāli āmmā”- landovur, go’l ma’nosida, “musiči begunāh”- begunoh, hech kimga ozor bermaydigan ma’nosida, “fisfisāki mājizkobāk”- mug’ombir, ikkiyuzlamachi ma’nosida, “lājlāki bedum”- novcha kishi ma’nosida, “devāli nāmkāš”- hamma gapni o’ziga olib tez arazlab qoluvchi kishilarga nisbatan qo’llanilishining guvohi bo’ldik.

Zero haqli ravishda ta’kidlanganidek, “... har bir til asosan o’z lug’at sostavi va grammatik qurilishi negizida ichki taraqqiyot qonunlari asosida o’sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, u yoki bu til jamoalarining o’zaro aloqasi natijasida bir til ikkinchisini boyitib boradi. Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli bir til qurilishiga xos elementlar (asosan lug’aviy birliklar, qisman grammatik va fonetik birliklar) ikkinchi bir tilga o’tib, o’sha tilning mulkiga aylanadi”²⁵.

Tabiiyki, frazeologizmlar eng ko’p o’xshatishlar asosida yuzaga keladi. Bunda eng ko’p qiyoslanadigan tasvir obyekti- kishilarning o’zlaridir. Zero, o’xshatishlar orqali shaxslarning tashqi ko’rinishi, a’zolari, xatti-harakatlari yorqin, aniq, emotsional-ekspressiv jihatdan tasvirlanadi. L.A.Lebedeva insonni xarakterlovchi o’n olti ideografik maydonni ajratib ko’rsatadi ²⁶.

Quyida aynan Samarqand shahri qarluq shevalarida insonning tana a’zolarini ifodalash uchun ishlatiladigan ijobiy va salbiy bo’yoqqa ega turg’un o’xshatishlar asosida yuzaga kelgan iboralarning tarkibiy qismlarini jadvalda ochib berishga harakat qilamiz.

O’xshatish obyekti	Ijobiy o’xshatish	Salbiy o’xshatish
bosh	lenin kalla komyuter kalla	tavoqdaq, sapchadak, oshkadudak, savatdak, lagandak , degi misdak
yuz	oydak, qoshukchadak, shirmondak, olmachadak	oytavoqdaq, tappidak, barkashdak, lapatkadak, shalg’amdak, kaftdak, sufdak, olqundadak, turshakdak, shoftoludak, fatirdak
soch	sharsharadak, qulondak milla daroz, rayhondak	patakdaq, jo’rubdak, samondak, xasdak, tuproqdaq, shivitdak, shivishak, mosh-u birinjdak, savatdak
ko’z	olboludak, gelosdak, charosdak, g’ildirak, chiroqchadak	piyoladak, soqqadak, pitko’z
qosh	hiloldak, kamondak,	o’rmondak

²⁵ Адашуллоева Г. Ўзбек ва тожик тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили.- Филология бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) дисс... – Самарқанд, 2019. - Б.43

²⁶ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001.- 208 с.

	qaldirg'ochdak, pilikdak, ipdak	
qovoq	bodomdak	oybadoq, oytavoq
burun	tugmadak	noskadudak, kovakdak, kartoshkadak, tano'rdak
og'iz	o'ymoqdak, pistadak, qaymoqchadak, guldak, gelosdak, g'unchadak	kalo'chdak, kavushdak
quloq	barakdak	otqulokdak, surfadak
bel	xipchadak, mo'rchadak, ninachidak, shamdak, niholdak, qamishdak	shkofdak, simkalitdak, tomdak, devdak
oyoq	qoshuqchadak,	lo'ladak, shulukdak, bolordak, cho'pdak, o'xloqdak
ko'krak	olmachadak, anordak, shoftoludak	ko'hdak, qavundak, tarbuzdak
qo'l	lo'xtakchadak, ipakdak, paxtadak, xamirdak	panshaxadak, kasovdak, cho'pdak
bo'y	navniholdak, guldak	terakdak, minordak, daraxtdak, shuturdak

“Hududga xos dialektal iboralarning xususiyatlari” deb nomlanuvchi uchinchi bobning ikkinchi bo‘limida Samarqand shahri qarluq shevalariga xos nutq jarayonlarida uchrovchi frazeologizmlarning o‘ziga xos jihatlari va mazmunlari 9 ta mavzuiy-semantik guruhlarga bo‘lib misollar yordamida yoritilgan.

O‘zbek tilining qarluq lahjasida so‘zlashuvchi mazkur hudud aholisi og‘zaki nutqi bo‘yicha yig‘ilgan materiallar tahlili shevaning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi manba sifatida qarash imkonini beradi. Shevadagi ikki tillilik, ya‘ni o‘zbek va tojik tillari shevalari aralashuvi holatlari tahlil jarayonida yanada aniqroq namoyon bo‘ldi.

To‘plangan materiallar tahlili tadqiqot obyekti bo‘lgan Samarqand shahri qarluq shevalariga xos nutq jarayonlarida uchrovchi frazeologizmlarni quyidagi mavzuiy-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini ko‘rsatdi:

1.Zavqlanish, shodlik va baxtiyorlikni ifodalovchi frazeologizmlar: *yuragim* otliqdi, *yuragim* jo‘shdi, *dilim* hapriqip ketdi, *dilimga* jon kirgizdi, *dilginam* yorishdi kabi. Bu ko‘rinishdagi iboralar SH. Rahmatullayevning “Frazeologizmlar izohli lug‘ati”da ham, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati(O‘TIL)”da ham aks etmagan.

2.Ajablanish, taajjub, hayrat, hayron qolishni ifodalovchi frazeologizmlar: “ang bo‘lmoq”, “tappa –tappa yiqilmoq” kabi: Hali sani ko‘rganla *tappa-tappa yiqilmasaydu?* (“Namuna” mahallasi) Kelinni ko‘rip hama *ang bo‘lip qolli* (“Yoshlar” mahallasi).

3. O‘kinch, xafalik, qayg‘u, ozor, hasratni ifodalovchi frazeologizmlar: “dillarim abgor bo‘lli”, “mustar bo‘lib qolmoq”, “o‘tirgan joylari yonmoq”, “ko‘ngli

tob tashlamoq” va hokazo. Misollar: Balam, bu g’amni endi qandoq ko’taraman, *o’tirgan joylarim yonib ketopti* (“Bibixonim” mahallasi). Kallasi kaduday, ko‘zlari olus nogiron balasini yetaklab ketotkan xotunni ko‘rub, *ko‘nglim tob tashladu* (“Botir Zokirov” mahallasi).

4. Hayajon, tashvish, xavotirlik kabi ma’no ifodalaydigan frazeologizmlar: Hududda xuddi shunday nominativ mazmunga ega “alaxon-malaxon bo‘lmoq”, “alag‘da bo‘lmoq”, “qumortqisi qurimoq” ko‘rinishdagi o‘ziga xos frazeologizmlar ham uchraydiki, bu Samarqand shahri shevalari lisoniy imkoniyatlarining naqadar boyligidan dalolat beradi: Tushimga biyimni ko‘rdum, enni *alag‘da bo‘lub o‘turupman* (“Tazar” mahallasi). Balamni kutip *qumortqim quriplar ketti oxi* (“Yoshlar” mahallasi). *Dilim alaxon-malaxon bo‘lopti*. Bacham kechikopti (“Qo‘shchinor” mahallasi).

5. G‘azab, nafrat, qahr, jahl, achchiqlanish ma’nolarini ifodalovchi frazeologizmlar. Samarqand shahri va uning atrofidagi o‘zbek shevalariga xos iboralarni tadqiq qilganimizda, xuddi shu mazmundagi iboralarning “va’zi tutmoq”, “orqasi tutmoq”, “chakka xalta” kabi o‘zgacha shakllariga duch keldik: Dadangni *va’zi tutkon* bugun, bacham (“Panjob” mahallasi). Bugun bug‘altirni *arqasi tutgon* (“So‘zangaron” mahallasi). Bu *chakka xalta* kelinimmi hech chehrasi ochilmaydu (“Toshkandi” mahallasi).

6. Qarg‘ish, so‘kish ma’nolarini ifodalovchi frazeologizmlar. Aynan Samarqand shevalarida keng tarqalganlariga to‘xtalib o‘tsak, “odamlar qatoridan kam bo‘gur”, “bo‘yginang lahadda chirigur”, “yuzingni murdasha‘y ko‘rsin”, “juvonimarg bo‘l”, “sarg‘alton bo‘l”, “qo‘llaring chungurak bo‘sun”, “bollaring bilan qo‘shmazor bo‘l”, “uylaring beega qosun”, “xesh-u tavoring bilan chil mazor bo‘l”, “bo‘yginang sapchaday uzilsun”, “bo‘ying serriday bo‘lmay o‘l”, “Xudoy osin seni”, “ko‘kingni kiyay”, “Xudodan topkur”, “suropchang avora”, “aft-u andoming qursun” kabi.

7. Ozg‘inlikni ifodalovchi frazeologizmlar. Samarqand shahri va uning atrofidagi qarluq shevalarida esa bu frazeologizmlarning ma’nodoshi “murda qoq”, “simyon silliq”, “sim kalit” ko‘rinishdagi metaforik usulda yuzaga kelgan iboralar qo‘llaniladiki, bular boshqa lug‘atlarda keltirilmagan. Ozg‘in kishini o‘likka, kalitga o‘xshatish vositasida mana shunday ajoyib original frazeologizmlar shakllangan: Avqotingni ye, *simyon sillix* (“Bibixonim” mahallasi). Bilmadum bu *murda qoq* qachon semiradu? (“Yoshlar” mahallasi) Kelinim *sim kalit-da* (“Juhuton” mahallasi).

8. Dangasalik, faoliyatsizlik ma’nolarini ifodalaydigan frazeologizmlar. O‘TILda shu mazmundagi “qo‘li bo‘sh” iborasi keltirilgan. Bularga ma’nodosh shevada uchraydiganlari quyidagilar: “toza havo xo‘jayini”, “chil kora”, “olib, tokchaga qo‘y”, “adresi yo‘q”. Dommodi *toza havo xo‘jayini* (“Bibixonim” mahallasi). O‘g‘li *chil kora*. Tuzukli hunari yo‘x (“Navgandagi” mahallasi). Yaqinda ogan kelinimiz hech ish qimaydu, *olib tokchaga qo‘ylardan ekan-da* (“Rustam qishloq” mahallasi).

9. Ezmalik, ko‘p gapirish xislatlarini ifodalovchi frazeologizmlar. Adabiy tildagi “labi-labiga tegmaydi” iborasining “jag‘i-jag‘iga tegmaydi” varianti ishlatiladi. Shuningdek, “gapni lag‘monday cho‘zmoq”, “ezilib o‘tirmoq” kabi iboralar Samarqand shahri shevalarida uchraydi. Bu bozorchi xotunni *jag‘i-jag‘iga tegmaydu*

(“Navgandagi” mahallasi). Biyisheshammida biyimlom *gapni lag‘monday cho‘zip* o‘tirdilar-da, biram uyollim xesh-u tavor ollida (“Juhuton” mahallasi). Qalavur qayga borsa *ezilib o‘tiradu* (“Rustam qishloq” mahallasi).

Samarqand shahri qarluq shevasiga xos iboralarni adabiy tilda mavjud ma‘nodoshlari bilan qiyoslagan holda tadqiq etish orqali ona tilimiz lug‘aviy boyligi bo‘lgan frazeologizmlarni keng o‘rganishni talab qiladi. Biz mazkur hudud shevalarini tadqiq qilish jarayonida adabiy tilda uchramaydigan iboralarni o‘ziga xos tahlil qilishga harakat qildik. Shunday ekan, o‘zbek tili frazeologizmlarining to‘ldirilgan yangi tahrirdagi izohli lug‘atini tayyorlashda nafaqat Samarqand, balki boshqa qarluq shevalari vakillari nutqida uchrovchi iboralar qamrab olinishi kerak, deb hisoblaymiz. Bu esa ona tilimiz so‘z zahirasi naqadar boy ekanligidan dalolat beradi.

Bobning “*Ijodkorlar asarlarida SShQShga xos so‘z va iboralarning qo‘llanilishi*” deb nomlangan uchinchi faslida “Devonu lug‘otit turk”da, Alisher Navoiy asarlarida, Abdulla Qodiriy romanlarida, Behbudiy, Hoji Muin ijodida, Nusrat Rahmat asarlarida, Orif Gulxaniy va Olim Orifiy, Dushan Fayziy Zarafshoniy she‘riyatida qo‘llanilgan aynan Samarqand shahri qarluq shevalariga xos lug‘aviy birliklarni aniqlab ularni tahlilga tortdik.

Masalan, “Devonu lug‘otit turk” asari bugungi kun shevashunosligida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘atda keltirilgan ayrim so‘zlar Samarqand shahri qarluq shevalarida ha uchrab turadi. Shulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz:

Yeng (132, 126-bet)\yeng (shahar shevasi)

Etik (132, 50-bet)\ etik (shahar shevasi).

Partu (132, 201-bet)\ partuk (shahar shevasida bu so‘z partuk, fartuk sifatida tarkibi fonetik o‘zgarishga uchrab orqasi bog‘ichli ish va ovqat paytida oldinga tutiladigan bir qavatli kiyimni ifodalashda ishlatiladi).

Qazish (132, 343-bet)\qayish (shahar shevasida kiyimlarga yordamchi buyumning nomini bildirib, kamar va qayish so‘zlari sinonim sifatida qo‘llaniladi).

Etak (132, 50-bet)\ etak (shahar shevasi). *Qoliqni etaginga artma*. “Chaqar” mahallasi.

Qurshag‘ (132, 376-bet)\ qurshov (shahar shevasida fo‘ta, belbog‘, kamdan kam hollarda qurshov sifatida uchraydi) kabilar.

Samarqandlik ijodkorlar asarlarida qo‘llanilgan shevaga doir so‘zlar, iboralar milliy koloritni, aynan mazkur hududga taalluqli urf-odatlarini, voqea-hodisalarni tasvirlash uchun qo‘llanilgan bo‘lib, bu ularning bevosita tug‘ilib o‘sgan hududi shevalarining ta‘sirida bo‘lganini izohlaydi.

Alisher Navoiyning tildan foydalanish mahorati shevashunoslik masalalarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Shoir ijodini tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy, tavsifiy usullaridan foydalanib tahlil qilish o‘zbek dialektologiyasining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, tilimiz imkoniyatlarini yoritish ko‘plab yangidan yangi tadqiqotlarning yaratilishida beqiyos o‘rin tutadi.

Xususan, A.Qodiriy asarlarida Samarqand shahri qarluq shevalariga xos o‘zbekcha, forsha-tojikcha so‘zlar o‘rni bilan ishlatilgan, bu o‘z navbatida romanning jozibadorligini oshirgan. Jumladan, yozuvchi qo‘llagan utta, so‘xta, amak, bachcha,

bo‘ryo, bovar qilmay, kuyav, daricha, padarona, mo‘ylab, jingngila kabi leksik birliklar hozir ham SShQShda faol qo‘llaniladi.

Xullas, samarqandlik ijodkorlar asarlarida qo‘llanilgan shevaga doir so‘zlar, iboralar milliy koloritni, aynan Samarqand hududiga taalluqli urf-odatlarini, voqea-hodisalarni tasvirlash uchun qo‘llanilgan bo‘lib, bu ijodkorlarning bevosita tug‘ilib o‘sgan hududi shevalarining ta‘sirida bo‘lganini izohlaydi.

XULOSALAR

Samarqand shahri qarluq shevalarini o‘rganib tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Samarqand shahri qarluq shevasi mustaqil sheva sifatida O‘zbekistondagi Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarining shevalari o‘rtasida yaqin mushtaraklik mavjudki, buning bir qator sabablari ishimizning dastlabki bobida to‘liq ochib berildi. Bu sheva o‘ziga xos bo‘lib, fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil tarmoq hisoblanadi. Aynan Samarqand viloyati tumanlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalar mahsuli hisoblangan “Samarqand shahar shevasining unlilari” (1928), “Samarqand o‘zbeklari tilining namunasi” (1935), “O‘zbek tilining nayman shevasi” (1963), “O‘zbek tilining g‘arbiy Samarqand shevalari” (1977) kabi asarlarga diqqatimizni qaratib o‘rganishga harakat qildikki, aynan o‘rganish obyektimiz hisoblangan Samarqand shevalari fonetikasi, morfologiyasiga doir qimmatli ma‘lumotlarni aniqlashga, ishimizning ilmiy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi materiallarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Afsuski, bu dialekt to‘liq va alohida o‘rganilmagan. O‘rganilayotgan material Samarqand shahri qarluq shevalarining lug‘at tarkibiga ko‘ra atrofdagi boshqa shevalardan farqlanishini tasdiqlaydi.

2. Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasi resurs qiymatiga ega. Unda mumtoz adabiyot tilining alohida so‘zlari bugungi kunda ham bevosita saqlanib qolganligiga guvoh bo‘ldik: *ži:ld* (kitob muqovasi), *žoj* (ariq), *zi:nä* (narvon, zinapoya), *dästä* (tutqich, sop), *dästmäjä* (sarmoya, naqd pul), *dästävez* (tuhfa, hadya), *bäzi:čä* (o‘yinchoq), *bäli:št* (yostiq), *gi:lem* (gilam), *gugi:rd* (gugurd), *äynäk* (ko‘zoynak) va boshqalar.

3. Mazkur biz tadqiq qilayotgan sheva lug‘atida ikki guruh so‘zlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: a) ko‘p qo‘llaniladigan o‘zlashma birliklar; b) leksik dialektizmlar (to‘liq va to‘liqsiz). O‘zbek tilidagi umumiy lug‘at o‘z shakli va ma‘nosiga ko‘ra to‘rt guruhni o‘z ichiga oladi: shakli o‘zgarimagan so‘zlar; tovush o‘zgarishiga duchor bo‘lgan so‘zlar; so‘zma-so‘z, ayrim hollarda esa fonetik o‘zgarishlar orqali bevosita ma‘nosini saqlab qolgan mumtoz lug‘at elementlari, ya‘ni “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya”, “Devoni lug‘otit turk”, Alisher Navoiy asarlari; dialektda metaforik ma‘noda qo‘llaniladigan yoki disfemik va evfemik xususiyatlarga ega bo‘lgan adabiy tilning lug‘at tarkibi shular jumlasidan.

4. Samarqand shahri qarluq shevasi leksikasi qatlamlaridan biri o‘zlashmalardan iborat bo‘lib, ular genetik mansubligiga ko‘ra quyidagi turlardan iborat: a) arabcha o‘zlashuvlar- asosan diniy tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanadi, shuningdek,

bunday soʻzlar turli tuzilishdagi soʻz yasashda soʻz yasash asosi sifatida ishtirok etadi; b) ushbu shevadagi tojikcha oʻzlashuvlar quyidagi xususiyatlarni koʻrsatadi: ular oʻzbekcha sinonimlar bilan birga qisman qoʻllanadi; dialektal xususiyat kasb etgan holda ikkinchi qismi adabiy tilda uchramaydi; keng tarqalgan maʼnosi bilan birga koʻchma maʼnoga ham ega boʻladi; dialektning soʻz yasash modellariga mos keladi; v) ruscha-baynalminal olinmalar turli xil texnik, maʼmuriy tushunchalar, bino va inshootlar, kiyim-kechak, idish-tovoq va oziq-ovqat nomlari, uy-roʻzgʻor va buyumlar, belgi va rang, kasblar va tegishli tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, mazkur birliklar mazmunli lugʻaviy birliklar sifatida stilistik va metaforik maqsadlarda qoʻllaniladi. Ularning dialekt muhitiga kirishning oʻziga xos usullari bor.

5. Samarqand shahri qarluq shevalari leksikasi mavzu jihatdan juda rang-barang boʻlib, qarindosh-urugʻchilik, chorvachilik, qurilish, bogʻdorchilik, tabiat hodisalari, buyumlar, oziq-ovqat va idish-tovoqlarga oid atamalar, kiyim-kechak, poyabzal va bosh kiyim, inson tanasining aʼzolarining nomlari, urf-odatlar, odatlari va anʼanalari, ayollar taqinchoqlari, oʻyin nomlari, bola tiliga oid soʻzlar, kishilarning ruhiy holatlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklardan tashkil topganligi aniqlandi.

6. Yangi maʼnoli soʻzlarning hosil boʻlishida, sheva soʻzlari va tushunchalarining shakllanishida xalq ogʻzaki tilidan yigʻib olingan materiallarning oʻrni juda katta ekanligini tadqiqot tasdiqladi.

7. Samarqand shahri qarluq shevalarida baʼzan soʻzlarning maʼno va tovush ekvivalentlari ham uchraydi. Masalan, yigʻilgan materiallar tahlili aholining bir qismi binoning tashqaridan xonaga yorugʻlik tushishi, havo kirishi uchun moʻljallangan oynali romni *deräzä* deb atasa, ikki tilda soʻzlashuvchilar nutqida *terzä* shaklida qoʻllanadi. Yoki uzoq, yashovchan, mevasi turli rang, shakl va vaznda boʻlgan, tami shirin meva bir mahallada *näk* tarzida aytilsa, boshqa yondosh mahallada *murut* deb ataladi.

8. Mazkur shevaning lugʻat qismini kuzatish asnosida shunga guvoh boʻldikki, ayrim soʻzlarning koʻplab variantlari bor. Ular fonetik (ikkilik va koʻp nomli), morfologik (soʻz yasash yoʻllari va vositalariga koʻra), semantik (maʼnoning koʻchishi va soʻzlar orqali metaforik maʼno koʻchishi asosida yuzaga kelgan) variantdoshlarini qamrab oladi.

9. Shevada kelib chiqishi va tuzilishi, tasnifi, nutq jarayonidagi munosabatlari boʻyicha sinonim soʻzlar juda koʻp qoʻllanadiki, bular kishi nutqining rang-barangligi, boyligi bilan xarakterlanadi.

10. Adabiy til va shevalar lugʻatining boyligi bevosita polisemantik, sinonim, omonim soʻzlar hisobiga boyib borishi tabiiy hol. Bu hodisa mazkur sheva aholisi nutqida yangi soʻz va tushunchalarning paydo boʻlishiga xizmat qilgan. Koʻp maʼnoli soʻzlar narsalarning vazifalari bir xilligi, ularning rangi va koʻrinishining oʻxshashligi asosida yuzaga kelgan. Polisemiya omonimiyadan nutq jarayoniga qarab farqlanadi. Koʻp maʼnoli soʻzlar semantik toʻyinganligi hisobiga qarab ikki, uch va toʻrt va undan ortiq maʼnoli soʻzlarga boʻlinadi.

11. O‘zbek adabiy tili lug‘ati boyishida Samarqand shahri qarluq shevalariga xos so‘zlarning alohida o‘rni borligini hattoki ijodkorlar asarlarida ham faol qo‘llanilganligi, hatto O‘TILda qayd etilmaganligi bilan izohlash mumkin. Bu tabiiy jarayondir.

12. O‘zining leksik tarkibiga ko‘ra Samarqand shahri qarluq shevalari boshqa yondosh shevalardan leksikasida arabcha, fors-tojikcha, ruscha-baynalminal so‘z hamda atamalarning benihoya ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu esa qadimdan shaharda madaniy, ilm-fan rivojidadagi hamda savdo-sotiq aloqasining mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

**СТЕПЕНЬ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА
DSc.03/30.12.2019.Phil.02.03 ЦИФРОВОЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ
САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА УНИВЕРСИТЕТ**

ТИЛЛАБАЕВА ЗИЛОЛА РАХМАТИЛЛАЕВНА

**ГОРОД САМАРКАНД УЗБЕКСКИЙ
ЛЕКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДИАЛЕКТОВ**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд - 2023

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2021.2.PhD/Fil1725.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, английский, русский (резюме) на сайте ученого совета (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Абдиев Муродкасым Болбекович

доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Аширбоев Самихон

доктор филологических наук, профессор

Элгазаров Жулибой Данабаевич

доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Защита диссертации состоится на заседании ученого совета DSc.03/30.12.2019.Phil.02.03 по присуждению ученой степени доктора наук в Государственном университете имени Шарофа Рашидова имени Шарофа Рашидова ____ ____ 2023 г. в ____.

(Адрес: г. Самарканд, 174, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40; факс: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Самаркандский государственный университет им. Шарова Рашидова, главный учебный корпус, кабинет 105).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован под номером ____). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел: (8366) 239-11-40; факс: (8366) 239-11-40.

Автореферат диссертации распространен « ____ » _____ 2023 года.
(Отчет цифрового реестра ____ от _____ 2023 года).

М.К. Мухиддинов

Ученый совет, присуждающий ученые степени
председатель, доктор филологических наук, профессор

Д. Хурсанов

Ученый совет, присуждающий ученые степени
секретарь, философия филологии
врач (доктор философии)

Д. Б. Уринбаева

Ученый совет, присуждающий ученые степени
Председатель научного семинара при
доктор филологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В области диалектологии мирового языкознания проводится значительная работа по всестороннему изучению диалектов. В частности, на основе диалектного материала удалось ввести в литературный язык огромное количество слов, связанных с жизнью и бытом народов. Также удалось получить точные данные о распространении таких слов и явлений среди населения на уровне общенационального богатства. Уже совершенное изучение фонетики, морфологии, синтаксиса, лексикологии диалектов и наречий является фактором, поднимающим развитие отрасли на более высокий уровень.

Диалектный материал, записанный из народной речи, является богатым источником, отражающим культуру, историю этого народа. По этой причине современная задача, стоящая перед наукой, состоит в том, чтобы собрать лексику диалектов каждой области, разделить их на лексико-семантические группы и создать свою идеографическую лексику. Ведь Глава Нашего Государства Ш.М. Мирзиёев не случайно подчеркнул необходимость “осознания нашего национального самосознания, изучения древней и богатой истории нашей родины, усиления научно-исследовательской работы в этом направлении, всесторонней поддержки деятельности ученых гуманитарной сферы”²⁷. Уже “язык-это динамичное явление, которое постоянно растет, развивается”²⁸. По этой причине важным и актуальным вопросом в узбекском языкознании является изучение различных особенностей народных говоров различными методами. В сегодняшних условиях глобализации изменения в социальной жизни, несомненно, повлияют и на язык. Оно находит свое выражение в лексике нашего языка. Следует отметить, что, хотя в области узбекской диалектологии была проведена значительная исследовательская работа, лексика некоторых региональных диалектов не была полностью и детально изучена. В частности, лексика карлукских диалектов города Самарканда не являлась объектом отдельного монографического исследования. По этой причине изучение и анализ лексических особенностей лексических единиц диалектов данной территории чрезвычайно актуальны. Результаты такого исследования очень важны не только для области диалектологии, но и для развития узбекского языка, а тем более тюркологии. Причина согласно анализу диалектного материала, собранного по карлукским диалектам города Самарканд, в речи жителей данного региона выявлено наличие узбекского литературного языка и не зафиксированных в диалектах языковых единиц. Ведь диалекты данной территории имеют богатый словарный фонд. Нам также необходимо собирать и анализировать материалы по народным диалектам, чтобы сохранять, изучать, передавать будущим

²⁷ Президент Республики Узбекистан Ш. М. Послание Мирзиёева Олий Мажлису от 28 декабря 2018 года на тему” интенсивность нашего пути развития будет еще больше ” \ Народное слово.-29 декабря 2018 г.

²⁸ Нурмонов А. Лингвистик таджикот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.– Б.61.

поколениям духовное богатство нашего народа. Это повышает научную значимость нашей исследовательской работы.

Также как отметил Ш.Шоабдурахманов: “Если в ближайшее время узбекская традиционная лексика не будет зафиксирована в полном объеме, то с учетом всей ответственности можно сказать, что с уходом старшего поколения часть ценных материалов языка, сохранившихся в их говорах и дошедших до нас, может быть утрачена навсегда”²⁹. Действительно, глубокое изучение лексики узбекских диалектов приобретает важное значение для развития узбекского языкознания, в частности, таких его отраслей, как диалектология, диалектография.

Лексика узбекского языка имеет богатый исторический путь развития. В то время как некоторые слова оставались в обращении с древних времен до настоящего времени, некоторые возникли позже в результате относительно различных социальных изменений, а также влияния других языков. Уже с момента зарождения человеческой речи диалекты использовались по-своему. Дифференциация их смысловых тонкостей-одна из важных задач в то время, когда сегодня уделяется внимание развитию государственности. Употребляемые в узбекских диалектах: *çär*-вздохать, *talli*:- сладость, *žiguri:p* - ходить, *qi:lami:q* - худеть (на кыпчакском диалекте), *rāččā* - почва, *vājmä* - преувеличение, паника, *bāččā* - ребенок, *ānā* - бабушка (на корлукско-уйгурско-чигильском диалекте), *āpnā*- мы считаем необходимым ввести в литературный язык ряд специфических слов, таких как анхор, *yār* - большой ручей, тьяк-болохона (на огузском диалекте).

Изучение узбекских диалектов началось в первые годы прошлого века, а в 60-70-е годы в этом направлении была проделана довольно значительная работа. Ряд монографических исследований был освещен на основе материалов многочисленных организованных экспедиций. Публикация в этой области научных сборников “Лексикон узбекских диалектов” (1966), “Словарь узбекских народных диалектов” (1971) открыла новую страницу в изучении узбекских диалектов. Позже на основе собранных научных материалов вышла книга “Лексикон узбекских диалектов” (1991).

Но к концу прошлого и началу XXI века интерес к отрасли снизился. В этом отношении была проделана работа на цифровом уровне. В ходе изучения ряда монографий, научных учебников по диалектологии узбекские народные говоры были достаточно глубоко проанализированы фонетически, морфологически, ареально, но не полностью изучены лексически, счет.

Принимая во внимание это, мы постарались более полно и подробно изучить лексику карлукских диалектов города Самарканда.

